

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1429060>

## “JINOYAT VA JAZO” ROMANIDA JAMIYAT HAYOTINING YORITILISHI VA BOSHQA ASARLAR BILAN O‘XSHASHLIGI

Eshmurodova Dilobar Shaymardonovna

Usmonova Muxlisa Jo'rayevna

TerDU talabalari

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Fedor Dostoyevskiyning “Jinoyat va jazo” romanidagi jamiyat kamchiliklari, inson ruhiyati, psixologiyasi ochib berilgan. Maqolada “Jinoyat va jazo” asariga qiyoslash mumkin bo‘lgan asarlar, ya’ni, qaysi jihatlari bilan qiyoslanishi bat afsil yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* “Jinoyat va jazo”, ijtimoiy-psixologik, tushkunlik, jinoyat, sudxo‘rlik, ijtimoiy-falsafiy, “O’tkan kunlar”, talaba, ichki kurashlar.

Jahon adabiyotida o‘zining o‘chmas izini qoldirgan Fedor Dostoyevskiy o‘z asarlari bilan o‘quvchilar qalbiga kirib borgan. Uning butun dunyoga mashhur bo‘lgan “Jinoyat va jazo” asari 1865-1866- yillarda yaratilgan. Ushbu asar – ijtimoiy-psixologik, ijtimoiy-falsafiy roman. U juda ko‘p tillarga tarjima qilingan bo‘lib, unda Radion Raskolnikov ismli sobiq talabaning qilgan jinoyati va uning oqibatlari yoritilgan.

Asar qahramoni aslida talaba bo‘lib, kontrakt pulini to‘lolmaganligi sabab talabalikdan ozod etiladi. Bu sobiq talaba moddiy yetishmovchilik sabab jinoyat qilishga majbur bo‘ladi. Aslida moddiy yetishmovchilik asosiy sabab emas edi, uning fikricha jamiyatga zarar keltirayotgan shaxslarning jamiyatdan yo‘q bo‘lishi foydali edi. Shu sababli ham sudxo‘r kampirni o‘ldirib qotillikka qo‘l urishga unda xohish paydo bo‘ldi. Asar qahramoni yolg‘iz emas edi, onasi va singlisi bor. Ammo ularni

ham boqish qaysidir ma'noda uning bo'ynida edi. Biz ushbu asarni o'qib Radion Raskolnikovning qilgan jinoyatini qaysidir ma'noda oqlashimiz kerak. Asarda ham keltirilganidek, jamiyatga zarar keltirayotgan bunday kimsalarning o'ldirilishi jinoyat bo'lmaydi axloqiy jihatdan. Ammo qonun yo'lida bu jinoyatning jazosi muqarrardir. Asarga bejiz bunday nom berilmagan. Har qanday jinoyat, hech qachon jazosiz qolmagan va bundan keyin ham qolmaydi. Shuning bilan bir qatorda aynan advokat bo'lib, o'qib yurgan sobiq talabaning jinoyat qilishi bizga g'alati tuyulishi ham mumkin. Yozuvchining mahorati ham aynan shunda ko'rindi.

Fedor Dostoyevskiyning ushbu asarini bir nechta asarlarga qiyoslash ham mumkin. "Alfido", "Begona" va boshqa bir qancha asarlar borki, "Jinoyat va Jazo" bilan o'xshash mavzularni, masalan, insonning axloqiy dilemmasi, ichki kurashlari va jazoning ijtimoiy va shaxsiy oqibatlari kabi masalalarni o'rganadi. Biz asarning "Yevgeniy Onegin" bilan o'xshash joylarini ham ko'ramiz. Ya'ni ushbu asarda ham, "Yevgeniy Onegin" da ham xat bilan bog'liq bo'lgan voqealarni ko'rishimiz mumkin. "Jinoyat va Jazo"da, asosan, Raskolnikovning jinoyatni amalga oshirishi va uni jazolash jarayoni orqali insonning ichki axloqiy kurashlari ko'rsatiladi. Asar ruhiy kechinmalarni ohib berish bilan, jamiyatdagi kamchiliklarni yaqqol namoyon etgani bilan boshqa asarlardan farq qiladi va asar o'quvchilar ko'ngliga kirib bora olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ushbu asar qahramoni orqali ko'plab insonlarning qalbidagi dardlarini, kamchiliklarini yoritib bergen. Xuddi, Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida davr muammolari, kamchiliklari ko'rsatib berilganidek, "Jinoyat va Jazo" da ham o'z davridagi jamiyatning holati ohib berilgan. Har bir asar o'ziga xos uslubda bo'lsa-da, barchasi insoniyatning murakkab psixologik va axloqiy holatlariga e'tibor qaratadi. Ushbu asarlarni o'qish va asardan xulosa chiqarish o'quvchiga har tomonlama zarur va keraklidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fedor Dostoyevskiy. Jinoyat va jazo. Toshkent: 1977.
2. Gulnoz Xalliyeva. Qiyosiy adabiyotshunoslik. Toshkent: 2020.
3. Uzoq Jo‘raqulov, Komiljon Hamroyev. Qiyosiy adabiyotshunoslik". Toshkent: 2021.
4. Qosimov A., Hamroqulov A., Xo‘jayev S. Qiyosiy adabiyotshunoslik. – Toshkent: 2019.